

ERTA TUG'RUQ MUAMMOSINI O'RGANISHNING USLUBIY ASOSLARI

Rustamov Jaxongir Ikrom o'g'li

"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13342275>

Annotatsiya. Erta tug'ruq muammosini o'rganishning uslubiy asoslari o'z ichiga zamonaviy ilmiy nazariyalarni oladi. Ushbu maqolada erta tug'ruq holatini murakkab va nouyg'un tizim sifatida tahlil qilish uchun xaos nazariyasi va manfaatdor tomonlar nazariyasining qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, va manfaatdor guruhlar o'rtaсидаги samarali hamkorlik orqali erta tug'ruqning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin.

Kalit so'zlar: erta tug'ruq, xaos nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi, murakkab tizimlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy mas'uliyat, sinergetika, o'smir onalar.

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF STUDYING THE PROBLEM OF PREMATURE BIRTH

Abstract. The methodological foundations of studying the problem of premature birth include modern scientific theories. This article examines the application of chaos theory and stakeholder theory to analyze premature birth as a complex and heterogeneous system. According to the results of the study, measures to prevent premature birth can be developed through effective cooperation of government agencies, non-governmental organizations and interest groups.

Keywords: premature birth, chaos theory, stakeholder theory, complex systems, NGOs, social responsibility, synergetics, teenage mothers.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫХ РОДОВ

Аннотация. Методологические основы изучения проблемы преждевременных родов включают современные научные теории. В этой статье рассматривается применение теории хаоса и теории заинтересованных сторон для анализа преждевременных родов как сложной и неоднородной системы. По результатам исследования, меры профилактики преждевременных родов могут быть разработаны посредством эффективного сотрудничества государственных органов, неправительственных организаций и заинтересованных групп.

Ключевые слова: преждевременные роды, теория хаоса, теория заинтересованных сторон, сложные системы, НПО, социальная ответственность, синергетика, матери-подростки.

KIRISH

Bugungi kunda o'smirlar orasida erta tug'ruq muammosi jamiyatning dolzarb ijtimoiy masalalaridan biri sifatida qabul qilinmoqda. Ushbu muammoni o'rganishda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar yangi uslubiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Erta tug'ruq holatini tahlil qilish uchun xaos va tobe shaxslar nazariyasi, sinergetika va manfaatdor tomonlar nazariyasi kabi zamonaviy nazariyalar asosida tadqiqot olib borish muhimdir. Ushbu yondashuvlar, birinchidan, erta tug'ruqning murakkab, nouyg'un tizim sifatidagi mohiyatini tushunish imkonini beradi, ikkinchidan, tadqiqot obyektining o'z-o'zini tashkil etish, rivojlanish va o'zgarish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Erta tug'ruq holatini nochiziqli dinamika, beqaror xulq-atvor, o'zini o'zi tartibga solish xususiyatlari, shuningdek, tasodifiy og'ishlarga ega nouyg'un tizim sifatida qabul qilish mumkin.

Bu bilimlar majmuasi germaniyalik G.Xaken¹, fransiyalik I.Prigojin², amerikalik M.Feygenbaum³ hamda rossiyalik V.S.Stepinlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Akademik V.S.Stepin fikricha, o'zidan o'zi rivojlanuvchi tizimlarning sinergetik ta'siri jarayonlarning ortga qaytmasligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Insonning ular bilan o'zaro munosabati tashqi ta'sirlarga emas, balki uning mumkin bo'lgan sabablar maydonini o'zgartiradigan va tizim orqali o'zaro bog'langan harakatlariga asoslanadi⁴.

Xaos nazariyasini u yoki bu muammolarni hal etishning rasmiy yo'llariga nisbatan qaramaqarshi qo'yiladigan pozitiv usullari bilan bir qatorda qabul qilinishiga ham yo'l qo'yiladi va ular ijtimoiy hamda iqtisodiy vogelik borasidagi obyektiv tasavvurni shakllantiradi. Xaos nazariyasi nuqtayi nazaridan olib qaraganda, tadqiqot obyektining muhim jihatlaridan biri sifatida o'zini o'zi tashkil qilish sanaladi. Ushbu holat esa, o'z navbatida, o'tmishdagi va istiqboldagi holatlar ta'sirida hayot kechiradigan, o'ziga xos hamda yangicha sifat hosil qilish, tuzilma shakllantirish, o'zgaruvchan ham rivojlanishga intilayotgan tizimlarga turtki berish qobiliyati ham demakdir.

¹ Хакен Г. Синергетика как мост между естественным и социальными науками. // Синергетическая парадигма. Человек и общество в условиях нестабильности. – Москва: Прогресс-Традиция, 2003. – С.106-122.

² Пригожин И. Конец определенности. Время, хаос и новые законы природы. – Ижевск: Регуляр. и хаот. динамика, 1999. – С.215.

³ Feigenbaum M.J. J.Stat. Phys, 1978, v.15. p. 25.

⁴ Степин В.С. Саморазвивающиеся системы и постнеоклассическая рациональность // Философские исследования. – 2003. – № 8. – С.5-17.

Tadqiqotda o'smir yoshidagilar o'rtasida erta tug'ruq masalasini tahlil o'tkazishda xaos nazariyasiga asoslangan yondashuvdan foydalanish kelajakdagi ilmiy yo'naliishlardan biri sifatida qaralishi aniqlandi. Mazkur nazariya kutilmagan g'oya va tasavvurlar orqali alohida ajralib turadi hamda atrof-muhitni o'zgacha anglashga o'rgatadi⁵. Bu nazariya qiyin hisoblangan tizimlar orqali ishslash, ularni samarali boshqarish usuli haqida ta'limotni o'rgatgan holda asosiy masalalardan biri bu muhimi kuch bilan emas, balki mushkul tizimlarga ta'sir ko'rsatish nuqtasini to'g'ri topishni anglatadi. Shu bilan birga, biz erta tug'ruq jarayoniga turli ta'sir guruhlar manfaati to'qnash keladigan maydon sifatida ham ko'ramiz.

Ma'lumki, Frimen tomonidan manfaatdor tomonlar nazariyasi ilk bor ta'riflangan⁶. Aytish joizki, mazkur nazariya bevosita xorijiy adabiyotlarda ko'rib chiqilgan, tanqid qilingan va aynan ularda rivojlangan (D.D.Vud, G.B.Kleyner, R.K.Mitchell, M.A.Petrov, L.Y.Preston, B.R.Egl).

Tadqiqotchilar uni biznes-tuzilmalar faoliyatini tahlil qilishda hanuzgacha faol qo'llab kelmoqda. Lekin steykxolderlar nazariyasidan ijtimoiy soha obyektlariga bog'liq masalalarda foydalanilgan ilmiy ishlar kam uchraydi⁷.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat tomonidan manfaatdor tomonlar nazariyasining nazariy va amaliy ahamiyati keng e'tirof etilganiga qaramay, u yetarli darajada rivojlanmagan va qisman qarama-qarshiliklarga duchor bo'lmoqda. Masalan, V.L.Tambovtsevning fikricha⁸, bu uning asosiy talqini zamonaviy iqtisodiy nazariya vositalariga tayangan iqtisodiy tafakkur emas, balki axloqiy tamoyillar zamiriga qurilganligi bilan izohlanadi. Nazariyaning tarkibiy qismlarini tashkil etadigan vositalar o'zining qashshoqligi bilan alohida ajralib turadi, bu holat esa undan foydalanish yo'llarini birmuncha qiyinlashtirib qo'yadi. Shuningdek, mazkur jarayon steykxolderlar nazariyasi uslubiyotida ham tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Bundan ko'rindiki, jamiyat yuzlashayotgan bu kabi muammolar ijtimoiy himoyaga muhtojlarni davlat tomonidan quvvatlash borasidagi samaradorlikni oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

Biz erta tug'ruq muammosining yanada chuqurlashib borishi hamda ijtimoiy davlat modelini tanlagan O'zbekiston hukumati oldida turgan vazifalar orasidagi tafovut kattalashib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Shu nuqtayi nazardan, davlat organlarining asosiy

⁵ Глейк Джеймс. Хаос. Создание новой науки. – Москва: Амфора, 2001. – С.46.

⁶ Freeman R.E. Strategic management: A stakeholder approach. Boston: Pitman, 1984.

⁷ Лисичкина Н.В. Синергетико-институциональный подход к оценке инвестиционной деятельности предприятия: дис. ...канд. эконом. наук: 08.00.05. – Орел, 2009; Рахманова М.С. Разработка методов инновационного стратегического анализа вуза на основе теории заинтересованных сторон: дис. ...канд. эконом. наук: 08.00.05. – Владивосток, 2009.

⁸ Тамбовцев В.Л. Стейкхолдерская теория фирмы в свете концепции режимов собственности // Российский журнал менеджмента. – 2008. – № 3. – С.17–23.

strategiyalaridan biri turli manfaatlar guruhlari bilan oqilona munosabatlar o‘rnatishdan iborat bo‘lib, bu o‘z navbatida turli omillarni qo‘llab-quvvatlagan holda erta tug‘ruq muammosini hal qilishga yordam beradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, erta tug‘ruq tadqiqot obyekti sifatida murakkab va nouyg‘un tizim belgilariga ega jarayon, hodisasidir. O‘s米尔 onalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning asosiy strategiyasi davlat organlarining manfaatdor tomonlar bilan keng aloqalarini o‘rnatish va ushbu munosabatlarni saqlab qolish bo‘yicha vakolatlarini rivojlantirishdan iborat:


- f
- ; –erta tug‘ruq muammosini hal qilishdan manfaatdor tadbirkorlar va jamoat tashkilotlari

O‘s米尔 onalar ko‘plab kichik tuzilmalardan tashkil topgan murakkab tizimdir, ular quyidagilardan iborat:

;

- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati obyekti sifatidagi ta’siri;
- oilani ijtimoiy mas’uliyat subyekti sifatida ko‘rib chiqish (1.4-rasm).

1.4-rasm. Erta tug‘ruq holating oldini olishdan manfaatdor tomonlar



Manfaatdor bo‘lgan tomonlar hamda ularning boshqa tuzilmalar bilan hamkorlik jihatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan qarashlarni tahlil etish bilan ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar manbalar almashinuvni atrofida barpo etilishini ko‘rsatdi. Resurs almashinuvni jarayonida voyaga yetmagan onalarni qo‘llab-quvvatlash turli xil natijalarga olib kelishi mumkin.

Bunda tadqiqotning muhum jihatni “voyaga yetmagan onalar biznesning ijtimoiy mas’uliyati obyekti sifatida” masalasini ko‘rib o‘tsak.

Hozirgi paytda mamlakatimizda ijtimoiy sheriklikning huquqiy asoslari rivojlanmoqda.

Xususan, davlat hokimiyati, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlariga doir turli masalalar O‘zbekiston Respublikasining 30 ta qonunida va yuzdan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatida mustahkamlangan. Bular, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risi”dagi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, “Homiylilik to‘g‘risida”gi va “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari bo‘lib, ularga muvofiq davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlari doirasida nodavlat notijorat tashkilotlarini turli shakllarda qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir”.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunida “davlat-xususiy sheriklik” tushunchasiga quyidagi tarzda ta’rif berilgan: “davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatda yuridik tomondan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish bo‘yicha resurslarini birlashtirishga asoslangan hamkorligi”.

Davlatda ijtimoiy sheriklik tizimining holati uning ijtimoiy yo‘naltirilganligi, ya’ni qanday darajada ijtimoiy mamlakatligi bilan belgilanadi. Davlatning ijtimoiy xususiyati birinchi marta 1949-yil Germanianing Asosiy qonunida e’lon qilingan. Ushbu jihat davlat tarafidan jamiyat a’zolariga xizmat qilinishini va asossiz ijtimoiy tafovutlarga barham berish yoki ularni imkon qadar kamaytirishga harakat qilishni nazarda tutadi⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvinining respublika shakliga ega sanalgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minalash uchun qonuniylik, ijtimoiy adolat hamda birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”, deb qayd etilgan.

⁹ Ijtimoiy davlat // <http://xushnudbek.uz>.

Voyaga yetmagan onalar nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyati obyekti sifatida alohida e'tiborga molik, chunki bu fan va amaliyat uchun nisbatan yangi hodiasdir.

NNTlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, xususan, voyaga yetmagan onalarga ancha vaqtdan beri yordam ko'rsatib kelmoqda. Bu boradagi "Homiylik to'g'risida", "Jamoat fondlari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini kafolatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilingan.

Hozirda tomonlarning o'zaro munosabati quyidan yuqoriga emas, aksincha yuqoridan quyiga qarab rivojlanmoqda. Bu esa voyaga yetmagan onalar muammolarini hal qilishga o'za'sirini o'tkazadi.

Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati ommaviy ijtimoiy harakatga aylangani bilan faxrlansa arziyi. Yil sayin ularning soni o'sib bormoqda. Misol uchun, "keyingi 4 yilda fuqarolik jamiyatining eng asosiy institutlaridan biri hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 20,7 foizga oshib, 187 ta yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini boshlagan. Hozirgi kunda mamlakatimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarini himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o'yamoqda".

Aytish joizki, ijtimoiy soha nafaqat mamlakatning, balki nodavlat notijorat tashkilotlarining zimmasidagi vazifa ham hisoblanib, davlat subyekti sifatida faoliyat olib borishi darkor.

Nodavlat notijorat tashkilotlar voyaga yetmagan onalarga bog'liq loyihalarni ham amalga oshirmoqda. Mazkur ijobiy tajriba nafaqat budget mablag'larini tejash, balki ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga imkon berishini ham yaqqol isbotlamoqda. Bunga xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatuvchi nodavlat notijorat markazlari faoliyatidan misollar keltirish mumkin.

"Qulay hordiq sari yo'l" loyihasi "Bolalar shaharchasi" NNTlarining yillar davomida qilgan mehnati va orttirgan tajribasi asosida dunyo yuzini ko'rgan. Buning alohida jihat shundan iboratki, ularning katta qismi xavf guruhi vakillaridir.

Mamlakatimiz volontyorlik faoliyatida ancha jonlanish kuzatildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari haqida"gi 169-sonli qarori qabul qilingan. Volontyorlik orqali kam ta'minlanganlarga, ko'p bolalilarga, boshpanasizlarga yordam ko'rsatish, bemorlarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni, qariyalarni

parvarishlash, sport, madaniy va boshqa tadbirlarni tashkil etishga ko‘maklashish hamda boshqa usullarda xayriya ishlarini amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, ko‘ngillilar sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish, bag‘rikenglik, insonparvarlik va hamjihatlikni rivojlantirish, shuningdek, ko‘ngillilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini ilgari surish maqsadida O‘zbekiston Ko‘ngillilar uyushmasi tashkil etildi¹⁰.

Aytish joizki, erta tug‘ruq holatlarining aksariyati nikohsiz oilalarda qayd etilmoqda.

Shuning uchun ko‘ngillilar voyaga yetmagan onalar bilan erta homiladorlik profilaktikasi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazishi maqsadga muvofiq. Ularga ko‘maklashishga ixtisoslashtirilgan xizmatlar – kommunikatsiya tarmoqlari, reklama agentliklari, voyaga yetmagan onalar ta’lim olishiga yordamlashuvchi hamda ishlashini rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanishi muhim ahaniyat kasb etadi. Volontyorlar bu toifaga kiruvchilar bilan ta’lim muassasalari, mahallalar, yoshlardan klublari hamda jamoat joylarida tadbirlar o‘tkazishni tavsiya etadi. Shuningdek, tegishli yo‘nalish mutaxassislari tomonidan yaratilgan maxsus metodikaga tayangan holda o‘tkaziladigan sinovlar va suhbat davomida yoshlarda jinsiy hayotni erta boshlash hamda voyaga yetmagan onalikka nisbatan salbiy yondashuvni rivojlantirish o‘ta muhim sanaladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qator foydali ishlar amalga oshirilmoqda, ammolarning o‘zida ham iqtisodiy-ijtimoiy qo’llab-quvvatlash hamda ko‘makka muhtoj holatlari mavjud. Jumladan, nodavlat notijorat sektori poydevorini yanada takomillashtirish, ularga xususiy tadbirkorlik hamda kichik biznes yo‘nalishiga berilayotganidek shart-sharoit, imkoniyat hamda imtiyozlarni taqdim etish lozim. Yurtimizda yangi ijtimoiy texnologiyalarni yaratish, ijtimoiy soha muammolariga innovatsion yechim toppish maqsadida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarini ochish muhim ahamiyat kasb etadi¹¹.

Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun soliq muhitini yaxshilash, ularning ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha davlat buyurtmalarini bajarishga da’vogarlar safidan o‘rin olishini yengillashtirish, xayriya tizimini rivojlantirish uchun yangi imkoniyat va qulayliklar taqdim etish lozim. Shu munosabat bilan nodavlat notijorat tashkilotlarini soliqqa tortish, xayriya faoliyati, xayriya qiluvchilar uchun beriladigan imtiyozlar tizimini optimallashtirish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oila siyosatining voyaga yetmagan onalarni qo’llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish uchun belgilab qo‘ylgan funksiyalari ijrosini ta’minlashda ustuvor loyihalarni rivojlantirish masalasini ham kiritish zarur.

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-4623999>

¹¹ Швецова Л.И. Настоящие социальные реформы еще впереди. // Электронный ресурс: <http://www.tver-13.ru>.

Xulosa shuki, O‘zbekiston sharoitida davlat va jamiyat bir qator muhim ijtimoiy hodisalarining manfaatdori hisoblanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan alohida guruhlarga ko‘proq e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa, tadbirkorlik subyektlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bu e’tiborni korporativ ijtimoiy mas’uliyat doirasida muayyan resurslarni ajratish signali sifatida izohlaydilar.

REFERENCES

1. Abduramanov X.X., Xonto‘rayev B., Zokirov Sh. “Erta turmush va erta tug‘ruq holatlari: muammo va yechimlar” [Matn]: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – 84 b.
2. Abdurmanov X.X., Sodiqova Sh.M. Abdusamatov X.U. Erta turmush barchaga tashvish (Matn): uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022. – 32 b.
3. Abdusamatov X., Alimjanova D., Dehqonov Sh. Erta turmush: yeti o‘lchab, bir kesing... - Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022. – 48 b.
4. Нтонов А.И., Медков В.М. Социология семьи. – Москва: Изд-во МГУ: Изд-во Международного университета бизнеса и управления, 1995. – 304 с.
5. Ргунова В.Н. Социальная справедливость: ценностно-институциональный анализ. – Иванова: Иван. гос. ун-т, 2004. – 310 с.
6. Бабенко А.И. Репродуктивное поведение девушек подросткового возраста/А.И. Бабенко, А.П. Денисов, В.И. Спинов // Социология медицины – 2008. - №2. – С. 39-42.
7. Аранов А.Н. Особенности течения беременности и родов у подростков // Акушерство и гинекология, 1997. – № 4. – С. 44-46.
8. Ердникова Т.В. Юное материнство в современной семье: монография. – Курск, 2000. – 104 с.
9. Ердникова Т.В. Юное материнство в современной семье. Монография. – Курск: Курск. гос. мед. ун-т, 2000. – 161 с.
10. Ўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Тошкент: Университет, 1997. – 73 б.
11. Rustamov J. I. VOYAGA YETMAGANLAR O ‘RTASIDA ERTA NIKOHLARNING OLDINI OLISH BO ‘YICHA XORIJ TAJRIBALARI //Current approaches and new research in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 18-26.
12. Jakhongir R. CAUSES OF EARLY MARRIAGES AND EARLY BIRTHS AND THEIR CONSEQUENCES //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 03. – С. 99-104.
13. Xudaybergenovich A. X., Ikrom o‘g‘li R. J. OLIY O ‘QUV YURTI TALABALARIDA NIKOHGACHA BO ‘LGAN XULQ-ATVOR VA OILA QURISHNING O ‘ZIGA XOSLIGI

//TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №.
5. – C. 170-176.

homitov K. Z., Rustamov J. I. USING THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN
FAMILY PLANNING AND BIRTH CONTROL //Oriental Journal of Social Sciences. –
2023. – T. 3. – №. 05. – C. 34-46.